Xalqaro tijorat arbitrajida “interim measures”-vaqtinchalik ehtiyot choralari qanday tartibda amalga oshirilishi, uning milliy sudlarga daxldor qismlari

Mardonova Marjona Saydullo qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada vaqtinchalik ehtiyot choralari qanday tartibda va qaysi hollarda amalga oshirilishi, uning arbitraj tomonidan amalga oshirilishida qanday ijobiy hamda salbiy jihatlar mavjudligi haqida so’z boradi. Vaqtinchalik ehtiyot choralarini qo’llashda milliy sudlarning ahamiyati ham shu bilan birga tahlil etib beriladi.

Shuningdek, mazkur masala bo’yicha boshqa davlatlar qonunchiligida hamda O’zbekiston qonunchiligida qanday amaliyot mavjudligi ham tahlil etiladi.

Kalit so’zlar: Arbitraj, arbitr, arbitraj kelishuvi, UNICITRAL MODEL LAW, provisional and conservatory measures, favqulodda arbitraj.

Абстрактный: В данной статье рассказывается о том, как и в каких случаях осуществляется временная мера пресечения, каковы положительные и отрицательные стороны ее применения арбитражем. При этом анализируется значение национальных судов в применении временных мер пресечения.

Также анализируется, какая практика существует в законодательстве других стран и законодательстве Узбекистана по данному вопросу.

Ключевые слова: Арбитраж, арбитр, арбитражное соглашение, ТИПОВОЙ ЗАКОН ЮНИСИТРАЛ, обеспечительные и обеспечительные меры, чрезвычайный арбитраж.

Abstract: This article describes how and in what cases a temporary preventive measure is carried out, what are the positive and negative aspects of its application by arbitration. At the same time, the importance of national courts in the application of interim measures of restraint will be analyzed.

It also analyzes what practice exists in the legislation of other countries and the legislation of Uzbekistan on this issue.

Key words: Arbitration, arbitrator, arbitration agreement, UNICITRAL MODEL LAW, interim and interim measures, emergency arbitration.

Kirish qism

Avvalo, “interim emasures” atamasi nima, uning O’zbekiston qonunchiligida qanday o’ringa ega ekanligini aniqlashtirib olamiz. Anglo-sakson huquq tizimida “interim measures” vaqtinchalik ehtiyot choralari sifatida o’zbek tilidagi adabiyotlarda talqin qilinadi. Lekin interim measuresning ayni mazmuni bizning huquq amaliyotimizda qo’llaniladigan vaqtinchalik ehtiyot choralarining yaqqol o’zininamoyon etmaydi. O’ZBEKISTON Respublikasi qonunchiligida vaqtinchalik ehtiyot chorasi jinoyat protsessual qonunchiligida mavjud bo’lsa-da, fuqarolik qonunchiligida hamda amaliyotida “vaqtinchalik ehtiyot chorasi” degan atama mavjud emas. “Interim measures” ning xalqaro fuqarolik protsessida muayyan bir atamasi mavjud bo’lmasa-da, UNICITRAL MODEL LAW 2006 ning 17-moddasi 2-qismiga ko’ra, “Interim measures-arbitraj

sudining istalgan vaqtida arbitraj sudi tomonidan kelgusida chiqariladigan qarorning erkin harakatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirdir."[1] Agar mazkur atamadan kelib chiqadigan bo'lsak, bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi da'voni ta'minlash institutiga o'xshab ketadi. Lekin "Interim measures" ning qo'llanilishi mumkin bo'lgan turlariga e'tibor beradigan bo'lsak, u dalillarni ta'minlash institutining ma'lum bir elementlariga ham ega. Demak, "interim measures" ham dav'oni ta'minlash, ham dalillarni ta'minlashning muayyan bir elementlariga ega. Xususan, "interim measures" ning quyidagicha turlari mavjud:

1) Arbitraj protsessiga zarar yetkazadigan yoki uning faoliyatiga xalaqit beradigan harakatlardan saqlanish;

2) Qabul qilinadigan arbitraj qarori qanoatlantirilishi uchun aktivlarni saqlashni ta'minlash;

3) Nizoning hal qilinishiga taaluqli bo'lishi mumkin bo'lgan dalillarni saqlash;

4) arbitraj protsessini olib borishni osonlashtiradigan chora-tadbirlar;

5) Arbitraj sudining qarori vaqtida tomonlarning shartnomaviy munosabatlarini aniqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar;

6) Qabul qilingan arbitraj qarorining ijrosini osonlashtiradigan chora-tadbirlar.

"Interim measures" ning arbitraj sudlarida qo'llashga sabab bo'lgan omillar.

Davlatlarning "interim measures" ni qo'llash bilan bog'liq amaliyotiga e'tibor beradigan bo'lsak, ayrim davlatlar arbitraj tomonidan tanlangan "interim measures" ning ijrosi masalasiga kelganda, arbitraj buyrug'ini tan olmaydi. Ular interim measures ham aynan davlatning milliy sudlariga murojaat etilgan holda hal qilinishi kerakligini talab qilishadi. O'zbekiston Respublikasining ham mazkur masala bo'yicha pozitsiyasi xuddi shunday, ya'ni "interim measures" bo'yicha faqat milliy sudlar vakolatli, arbitrajning mazkur institut bo'yicha yurisdiksiyasi tan olinmaydi. Lekin ko'pchilik davlatlar allaqachon arbitraj tomonidan "interim measures" uchun berilgan qaror tan olinishini o'z amaliyotlariga kiritishgan. Xususan, sud tomonidan qabul qilingan qaror quyidagi sabablarga ko'ra, qoniqarsiz hisoblanadi:

1) Tomonlarning arbitraj sudiga murojaat etishining eng asosiy sabablaridan biri, maxfiylikni saqlashdir. Yana agar zarur "interim measures" ni ta'minlash milliy sudlarnig vakolatiga taaluqli etib belgilanadigan bo'sa, yuqorida aytilgan maqsadga putur yetadi.

2) Kerakli "interim measures" ni qo'llash uchun vakolati yetmasligi, sudgacha hamda suddan keying protseduralar biroz ko'proq vaqt olishi yokisudning xolisligiga tomonlarning shubhasi bo'lishi mumkin.

3) Agar yuqoridagi qoidalar bo'lmagan taqdirda ham milliy sud protsessi jarayonida tarjimonga ehtiyoj tufayli ham vaqt ham xarajat ko'payishi mumkin.

4) Agar nizo bir nechta davlatlarni qamrab oladigan bo'lsa, hamma davlatga taaluqli bo'lgan bitta yakdil qaror kerak.

Yuqoridagi sabablar tufayli ham arbitraj tomonidan qabul qilinadigan "interim measures" ga ehtiyoj sezilgan hamda bu ko'pchilik davlatlar tomonidan qabul qilingan.

[1] https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/19-09955_e_ebook.pdf

Xalqaro arbitraj tomonidan “interim measures” qo’llaniladigan bo’lsa, yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolar.

Xalqaro arbitraj tomonidan qabul qilinadigan “interim measures” ning o’ziga yarasha quyidagi salbiy jihatlari mavjud:

1) Agar qabul qilingan “interim measures” to’g’ridan to’gri davlatning milliy sudlari tomonidan ko’rib chiqilmasdan turib qonuniy kuchga ega bo’ladigan bo’lsa, bu davlatlarning milliy suvirenitetiga qaysidir jihatdan ta’sir qiladi, albatta.

2) Xalqaro arbitraj tomonidan qabul qilingan interim measures, davlatning ommaviy tartibiga xilof bo’lgan vaziyatlarda, davlatning milliy manfaatlariga putur yetishi mumkin.

Xulosa.

“Interim measures” har tomonlama taraflarning manfaatlari buzilishi oldindan namoyon bo’lib turgan vaziyatda sud tomonidan bu vaziyatni oldini olishga xizmat qiladi. Uning xalqaro arbitraj tomonidan qabul qilinishining foydalari yuqorida tahlil etilganidek, kamchiliklarini o’rnini qoplaydi. Shuning uchun mazkur institutning keng miqyosda barcha davlatlar tomonidan amaliyotga taqdim etilishi arbitraj faoliyatini yuritishdan maqsadga muqobil bo’ladi.

References:

1.https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/19-09955_e_ebook.pdf

2. Margaret L.Mozes. Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Darslik

3. Harry Borne. Xalqaro tijorat arbitraji. Darslik